




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

O'ZBEK SHOMON AFSONALARINING OBRAZLAR TIZIMI

THE SYSTEM OF CHARACTERS IN UZBEK SHAMANIC LEGENDS

Ithomjon DARMONOV,

Turan xalqaro universiteti dotsenti v.b., fil.f.f.d. (PhD)

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085

Annotation. *This article analyzes the system of characters in Uzbek shamanic legends from the perspective of folklore studies. The main characters found in shamanic legends – such as shamans, spirits, ancestors, natural forces, and mythological beings – are examined in terms of their literary and semantic features. The study also explains the close connection between these characters and the ancient worldview, religious beliefs, and ritual traditions of the people. As a result of the research, the system of characters in shamanic legends is evaluated as an important component of oral folk creativity, and their cultural and spiritual significance is revealed.*

Key words: *shamanic legends, system of characters, shaman, spirits, mythological characters, ancestral spirits, natural forces, folklore, mythology, ritual, religious belief, oral tradition.*

Hayot falsafasi juda murakkab o'z qonuniyatlariga ega. Bu hayotga kelgan odamlar garchi bir dunyoda yashasalar-da, uni o'z qarichlari bilan o'ichaydilar. Ammo shunday hayotiy qonuniyatlar borki, ular inson hayotini va taqdirini belgilab beradi. Odamzod inson ongi va shuuridan tashqarida ham sodir bo'layotgan voqealarning yuz berishi, odam bolasi garchi qancha bilimdon bo'lmasin, inson hayotini o'zga olam vakillari tomonidan boshqarilishi, uning hayotiy faoliyatida g'ayb olami vakillarining o'rni borligini ko'pincha his qilmaydi, balki taqdir taqazosi sifatida e'tiboridan chetda qoldiradi. Inson hayotida yuz beradigan, realistlar ko'ra olmaydigan va ko'rishni istamaydigan hodisalar qadim zamonlardan beri zamin olami va g'ayb olami o'rtasida vositachilik qiladigan shomonlar faoliyati, ularning mifologik dunyoqarashi, magik marosimlari orqali sodir bo'ladi. Jahon folklorshunosligida shomon va uning faoliyatiga daxldor bo'lgan voqea va hodisalarni xayoliy uydirmalar vositasida ifodalagan og'zaki epik nasr namunalari shomon afsonasi sifatida tavsiflanadi.

O'zbek shomon afsonalarining badiiyati xususidagi izlanishlarimiz pirovardida shomon afsonalarining obrazlar tizimi borasida mulohaza yuritmoqchimiz. O'zbek shomon afsonalarida, asosan, uch obraz borligini kuzatdik. Unda shomon asosiy obrazlardan biri bo'lib, u oddiy odam farzandlari singari tug'iladi va vafot etadigan, real hayotda yashab o'tadigan, biz bilan birga faoliyat olib boradigan inson. Shomon afsonalaridagi obrazlar: shomon, uning mifologik homiysi va shomonga murojaat qilgan shaxs – guvoh obrazlaridir.

Shomon – afsona ijrochisi, epik voqelikda asosiy o'rin tutuvchi obraz. Shomonning oddiy odamlardan farqli tomoni shundaki, shomon aslida oddiy odam bolasi, faqat u oddiy odamlar qila olmaydigan ishlarni qilishga qodir. Oddiy odamlar uchun tilsimli sanalgan hodisalarning mohiyatini, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalar haqida ma'lumotga ega bo'lish, o'zga olam vakillari bilan muloqotga kirishish, g'ayb

olami vakillaridan ko'mak olish asosida o'z maqsadiga erisha olish kabi xususiyatlar shomonga xosdir. Bu xususiyatlar shomonning oddiy odamlardan farqlab turuvchi asosiy belgilari sanaladi.

Shomon afsonalarida shomon oddiy odamga nisbatan bir qadar ilohiylashtiriladi. Shuning uchun ham afsona shomonning faoliyatidagi g'ayritabiiy hodisalarni ifodalashga qaratiladi. Shomon afsonasida shomonning mifopoetik vazifalari turlicha bo'ladi. Qaysidir afsonada shomon yo'qolgan narsani topib berishga qodir bo'lsa, boshqa afsonada shomon kasallikning tub mohiyatini anglovchi va uni bartaraf etuvchi tabib vazifasini bajaradi; boshqa bir afsonada esa shomon g'ayritabiiy hodisaning sababchisi, sehrgar sifatida talqin qilinadi.

N.Pantusov tomonidan ommalashtirilgan etnografik materiallar orasida "Tarixi Rashidiy" kitobida keltirilgan baxshining paydo bo'lishiga doir afsonada shomon afsona syujeti negizida turgani va syujetdagi voqealar rivoji uning xatti-harakatlari vositasida sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin: "Bir kuni Dumnaxonning bir o'g'li Kaidxonga bir jin ilashib qoladi va Kaidxonni og'ir dardga giriftor qiladi. Kaidxonning issig'i oshib, tutqanog'i tutib, miyasi shisha boshlaydi. Olimlar, tabiblar uni davolay olmasliklarini aytishadi. O'g'lining dardiga davo topolmasdan arosatda yurgan Dumnaxon cheriklari bilan ovga chiqadi. U bir echkini otadi. Echki butazorlar oralab qochadi, Dumnaxon uning izidan quvib cheriklaridan ancha ortga qolib ketadi va o'zi ham to'qayzorda adashib qoladi. Dumnaxon yaqinroq daraxtlar bor joyga yo'l oladi. U shu yerda daraxtlar orasida bir odamni uchratadi. Bu odamning ko'zlari qontalash qip-qizil, yuzida chechakdan qolgan dog', sochlari o'sib yelkasiga tushgan, egnida sariq kiyimi bor. Tinmasdan aylanardi.

Shomon afsonalarida shomon obrazi voqealar o'zagida turadi. Syujet tizimida bosh qahramon bo'lgan shomonning xatti-harakatlari voqealar rivojini ta'minlaydi. Shomon afsona voqealarini yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan muhim obraz. Biroq uning syujet tizimidagi barcha harakatlari mifologik homiylar aralashuvi orqali amalga oshiriladi. Tahlilga tortilgan afsona syujetida shomon mifologik homiy ko'magida shahzoda Kaidxonni davolaydi. O'zidan keyingi shomonlarni tayyorlagani aytiladi. Demak, bu afsonada shomonning badiiy vazifasi uning bemorni davolashi va keyingi avlod shomonlarga ustozlik qilishi bilan belgilanadi. Ushbu afsona syujetida shomon obrazidan tashqari yordamchi personaj – echki obrazi ham e'tibordan qolmasligi lozim. Ma'lumki, echki – shomon mifologik homiylarining atributi. O'zbeklarda echkini shaytonga qiyoslaydi. Echki qadimgi mifologiyada jin, ajina, shayton singari demonologik personajlarning zoomorf ko'rinishi sifatida tasavvur qilingan. Tahlil qilinayotgan afsonada shomonning mifologik ko'makchisi vazifasini bajargan. Chunki afsona qahramoni hukmdor – Dumnaxon echkinining izidan kelib, shomonga yo'liqyapti. Aslida, shomon Dumnaxonning tashvishlarini g'ayb olami vakillari vositasida allaqachon bilgan. Shuning uchun u bilan uchrashganda "men har qanday kasallikni davolayman", – deydi va suhbatdoshining farzandiga jin tegganligini sezib turganini anglatib qo'yadi. Afsonada o'q teggan yarador echki to'qayzorda Davanchuk turgan tomonga qochib keladi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Echkini ta'qib qilib kelgan Dumnaxon kutilmaganda shomonga yo'liqadi. Qadimgi hosildorlik timsoli sifatida qaralgan echki keyinchalik mifologik tafakkur taraqqiyotida o'z magik mohiyatini o'zgartirib, yovuz ruh sifatida ham talqin etilgan. Afsonada epik qahramon o'q otib yaralagan echki shomonning mifologik homiysi devning atributi bo'lib, u, aslida, Dumnaxonni shomon tomonga yo'llash uchun echki qiyofasida

unga ko‘rinadi. Shomonning mifologik homiysi bo‘lgan dev epik qahramonga ikki marta ikki xil qiyofada namoyon bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishi echki qiyofasida, bu epik qahramon uchun sezilarli emas edi. Ikkinchi marta Davanchukning afsun o‘qishidan keyin dahshatli dev qiyofasida namoyon bo‘ladi va epik qahramonning hushidan ketishi hamda kofir bo‘lib uyg‘onishiga sababchi bo‘ladi.

Qadimgi skandinaviyaliklar mifologiyasida echki o‘lib-tirilish timsoli sifatida qaralishi bois qadimgi odamlar orasida bu mifologik tasavvur keng tarqalgan va turkiy xalqlar mifologiyasidan ham o‘rin olgan. Shomon afsonasida echki shomonning mifologik homiysi atributi, o‘lib-tiriluvchi, aniqrog‘i o‘limni inkor etuvchi ruh sifatida tushunila boshlagan. Rus mifologiyasida echki gunohlarni yuvish uchun qurbonlik qilinadigan jonivor sifatida talqin etiladi. Biroq o‘zbek shomon mifologiyasida shomonlar qurbonlikka echki so‘yishni taqiqlaydilar. Shomon mifologik tasavvurlariga ko‘ra, echki ruh timsoli sifatida sakral mohiyat kasb etadi. Shuning uchun ba‘zan og‘ir kasalliklarga shomonlar ko‘k echki sutini ichishni tavsiya etishadi. Nega aynan ko‘k echki sutini ichsa, darddan forig‘ bo‘ladi?- deb o‘ylashgani e‘tiborga molikdir. Shomon marosimlarida qurbonlikka tavsiya etiladigan qo‘yning rangi ko‘k bo‘lishi yoki bemorni davolash uchun ko‘k echki sutidan foydalanish qadimgi turkiy qavmlarning ko‘k tangri to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlari va shomoniy tasavvurlarning o‘zaro munosabatlari hosilasi sifatida qaralishi lozim.

Shoira baxshi afsonasida voqealar asosida shomon turadi. Afsona syujeti shomonning boshidan kechirgan voqealar hisobiga shakllanadi. Tasvirlangan voqealarda xayoliy uydirma yetakchilik qiladi. Bu shomonning shaftoli daraxtlari ustida uchib yurishi, suv ostida chiroyli qizlarni ko‘rishi, o‘zining tanasini yuqoridan kuzatishi va birdan tanasiga singib, ko‘zini ochib borliqni avvalgidek ko‘ra boshlagani kabi motivlarning mantiqiy izchilligida afsona syujet tizimini maydonga kelganligini ko‘rsatadi. Syujet negizida voqealar faqat shomonning xatti – harakatlari evaziga rivojlanib boradi.

Shomon afsonalarida ko‘zga tashlanadigan muhim obrazlardan biri shomonning mifologik homiysi obrazidir. Shomon afsonalarida parilar, devlar, Chiltanlar, Momolar, Bobolar, avliyolar, payg‘ambarlar mifologik homiy sifatida tilga olinadi. O‘zbek shomon afsonalarida mifologik homiylar, asosan, antropomorf qiyofada talqin etiladi.

O‘zbek shomon amaliyotida shomon oddiy odamlar orasidan homiy ruhlar tomonidan tanlab olingan shaxs sanaladi. Sibir shomonlarida ham ularning mifologik homiysi inson qiyofasidagi ruhlardan iborat ekanligini etnograf V.N.Basilovning “Ruhlar tanlovi” kitobida uchratamiz. Hatto ba‘zi shomonlarning mifologik homiylari o‘tmishda o‘tgan shomonlarning ruhlari bo‘lishi ham ta’kidlangan. O‘zbek shomon afsonalarida ham mifologik homiy obrazi sifatida avliyolar, payg‘ambarlar, tarixda yashab o‘tgan shomonlarning ismlari tilga olinadi. Shomon e‘iqodiga ko‘ra, mifologik homiylar shomonni hali shomonlikni qabul qilinishidan oldin o‘zaro tanlaydilar va unga sinov tariqasida og‘ir dard berib sinab ko‘radilar. Bo‘lajak shomon duchor bo‘lgan dard bilan ba‘zan uzoq yillar kurashadi, oqibatda chilla o‘tirib, qo‘l olgach darddan ham forig‘ bo‘ladi, o‘zi ham ilohiy ne‘matni qo‘lga kiritib, bemorlarni davolay boshlaydi.

Shomonning mifologik homiysi antropomorf qiyofada, asosan, ikki ko‘rinishda bo‘ladi: keksa ayol – momo, keksa chol – bobo yoki ota. Odatda shomonlarning ayol qiyofasida talqin etgan mifologik homiylari Anbar ona, Umay onalar momo – yoshi katta onaxon timsolida gavdalantiriladi. Biroq ba‘zi shomonlarning mifologik homiylari parilar



bo‘lib, navqiron hur qizlar ko‘rinishida, o‘ta go‘zal sohiralar sifatida gavalantiriladi. Folklorshunos O.Qayumov tomonidan xatirchilik T.Mirzayevadan yozib olingan shomon afsonasida baxshining 120 mingdan ortiq parilari borligi, shulardan yigirma nafari o‘z nomlari va funksional vazifalari haqidagi ma‘lumotni oshkor bo‘lishiga rozilik bildirgani va shomon ular haqida ma‘lumot berganligi qayd etiladi. T.Mirzayeva mifologik homiylari aynan navqiron go‘zal qizlar qiyofasidagi parilar ekanligi aytiladi.

Shomon afsonalarida mifologik homiylar va shomon munosabatlari talqinida mifologik homiylarning ba‘zan shomonga bosim o‘tkazuvchi personaj sifatidagi ko‘rinishi ham ko‘zga tashlanadi. Odatda, mifologik personajlar dastlab shomonga uchraganida unga o‘z yo‘llaridan yurish taklifini beradilar. Negadir deyarli barcha shomonlar bo‘ljak mifologik homiylari bilan dastlab kelishmaydi, ularning takliflariga qarshi bo‘ladi. Shundan keyin mifologik homiyning qat’iy ta’siri ko‘zga tashlanadi. Bu shomonning shomonlik dardiga chalinishi, uning dardini olimlar, tabiblar davolay olmasligi va nihoyat mifologik homiyning izmiga tushishi hamda chilla o‘tirib, qamlanishi natijasida sog‘ayishi motivlarida o‘z aksini topadi.

Shomon afsonalaridagi mifologik homiylar sof mifologik obrazlar bilan birga tarixiy shaxslar vafotidan keyin ularning ruhlari homiy sifatida shomonga madad berishi kuzatiladi. O‘zbek shomonlari mifologik homiylaridan biri – Anbar ona obrazi bo‘lib, folklorshunos O.Qayumovning qayd etishicha, Zangi otaning rafiqasi, tarixiy shaxs, u vafotidan keyin shomonlarning mifologik homiysi sifatida talqin etila boshlagan.

O‘zbek afsonalarida tarixiylik mezoni syujetda tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslarning ishtiroki bilan bog‘liqligini yozgan folklorshunos M.Rahmonovning yozishicha, “Tarix va folklor munosabati ko‘p qirrali ijodiy jarayon bo‘lib, voqelikni badiiy aks ettirish, xayolan idrok etilgan hayot haqiqatini keng ko‘lamda tasvirlash an‘anasida o‘z ifodasini topadi. Tarixiy voqelik va hayot haqiqatini epik talqin qilish an‘anasi o‘zbek folklorining tarixiy afsona janrining shakllanishi hamda tadrijiy rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunonchi, afsona janriga oid folklor asarlarining syujeti tinglovchiga yetkazilishi nazarda tutilgan hayotiy fakt va ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, bayon etilayotgan voqelik xayoliy uydirma vositasida, mifologik tasavvurlar va tarixiy shaxslarning fantastik detallar bilan boyitilgan obrazlari orqali tasvirlanadi”. Shomon afsonasida ham ayni shu tarixiy afsonalarga xos xususiyatni kuzatishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, tarixiy afsona ijrochisi istalgan shaxs bo‘lsa, shomon afsonasining ijrochisi – shomonning o‘zi. Shomon afsonasida asosiy epik qahramon – bu shomon, barcha voqealar shomon atrofida sodir bo‘ladi. Bu tipdagi afsonalarda tarixiy shaxslar shomonning mifologik homiysi sifatida tilga olinadi. Yanada aniqrog‘i, tarixiy afsonalarda tarixiy voqea-hodisa yoki tarixiy shaxs ishtirokidagi syujetda tarixiy shaxs tirik – hayot paytida uning taqdirida yuz bergan voqealar hikoya qilinsa, shomon afsonasida shomonning taqdirida marhum tarixiy shaxslarning ruhlari ishtirok etishi hikoya qilinadi. Qizig‘i shundaki, shomon afsonasida aytuvchi ham, tinglovchi ham tarixiy shaxsning vafot etganini biladi. Uni tirik inson sifatida qabul qilmaydi.

O‘zbek folklorida Xizr obrazining genezisini o‘rgangan F.Nurmonovning qayd etishicha, Xizr tiriklik suvini ichgan barhayot inson sifatida qaraladi, biroq mifologik tasavvurlarda Xizr payg‘ambar sifatida ham talqin qilinadi. Xizrning payg‘ambar sifatida talqin etilishi uning shomonlarning mifologik homiylari qatoridan o‘rin olishiga sabab

bo‘lgan. Negaki payg‘ambarlar ilohga yaqin shaxslar bo‘lib, o‘zga olam bilan muloqotda bo‘ladilar. Xizrning mangu tiriklik suvini ichgan deb tasavvur qilinishi dastlab uning payg‘ambarlar qatoridan o‘rin olishiga sabab bo‘lgan, keyinchalik karomatli avliyo, payg‘ambar sifatida shomon tasavvurlariga singdirilgan.

O‘zbek shomona afsonalarida shomonga murojaat qilgan shaxs – guvohlar obrazi alohida ahamiyatga ega. Chunki shomonning mo‘jizalaridan xolis guvoh sifatida o‘z taajjubini hikoya qiluvchi shaxslar tilidan aytilgan epik matn shomon afsonalarining alohida tipini tashkil etadi. Bunday afsonalarda shomonga murojaat qilgan shaxs muayyan muammo qurshovida bo‘ladi va shomonning ilohiy ko‘magi bilan mo‘jizaning guvohi bo‘ladi.

Xullas, o‘zbek shomon afsonalari obrazlar tizimi asosiy uchlikdan iborat. Bu uchlik shomon afsonasining syujetida galma-gal asosiy qahramon xarakterini kasb etib borishi kuzatiladi. Bu obrazlar: shomon, uning mifologik homiysi va shomonga murojaat qilgan shaxs – guvoh obrazlaridir. Shomon afsonalarida shomon afsona syujetida asosiy epik qahramon sifatida uchrashi ko‘pchilik hollarda kuzatiladi. Biroq shomonning mifologik homiylari ham shomon singari afsona syujetida mifopoetik hodisani sodir etishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, shomonga murojaat qilgan shaxs – guvoh obrazi ham ko‘pchilik hollarda syujet tizimida faol harakatlanuvchi, mifopoetik voqelikni ishtirokchisi sifatida talqin etiladi. O‘zbek shomon afsonalarida qarindoshlar, farzandlar kabi yordamchi personajlar ham uchraydiki, ular afsona syujetida asosiy qahramonga sehrli hodisalarning sodir bo‘lishda guvoh, hodisa obyekti sifatida ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Басилов В.Н. Тошмат-бола//Советская этнография. 1975, № 5. – С. 119.
2. Қаюмов О. Ўзбек шомон маросим фольклори (спецификаси, генезиси, жанрлар таркиби ва поэтикаси). Филол.фан.докт. дисс. – Тошкент, ЎзРФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2020. – Б.115-125.
3. Қаюмов О. Шомон афсоналари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2004. 6- сон.– Б.38-40.
4. Кошғарий М. Девону луғатит турк. 3 жилдлик. 1- жилд. – Тошкент, Фан, 1960. – Б.280.
5. Ксенофонтов Г. В.Шаманизм. Избранные труды (Публикации 1928-1929 гг.) – Якутск: Север-Юг, 1992. – 320 с.
6. Ксенофонтов Г.В. Легенды и рассказы о шаманах у якутов, бурят и тунгусов. – Иркутск: Власть труда, 1928. – С. 65.
7. Пантусов Н. Таранчинские бакши. Пери уйнатмак (Способы игры и лечения бакшей) // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Т. VI. – Ташкент, 1907. – С. 58-62.
8. Богораз В. Г. К психологии шаманства у народов северо-восточной Азии// О. – М., 1910. Т. 84-85. Кн. 1-2.– С. 4-36.